

**YURTIMIZ O'ZBEKISTONDA XALQ TABOBATINING
RIVOJLANISH TARIXI**

Sharipov A.

Osiyo xalqaro universiteti

Tibbiyot fakulteti talabasi

Yoshligimizda nuroniylar “Tabiat bergan kasalliklarning davosi tabiatning o‘zida” deya uqtirardilar. Tabiblar esa kasalliklarning taxminan 70 foiziga davo giyohlarda, qolgan 30 foizi mineral toshlarda, deb aytishadi. Asrlar osha qadr-qimmatini yo‘qotmay kelayotgan bu purma’no hikmat zamirida ona tabiatning ajralmas qismi bo‘lgan inson yo‘liqadigan kasalliklarga davo atrofigimizni o‘rab turgan borliqda mujassam, degan hayotiy haqiqat yotibdi. Faqat uni ilg‘ab, anglab o‘z o‘rnida foydalanish kerak.

Bu borada uzoq tarixga ega xalq tabobati eng yaqin ko‘makchi bo‘lib kelgan. Biroq ushbu sohaga yetarli darajada e‘tibor qaratilmasligi oqibatida yurtimizda an‘anaviy davolash usullari unutilib ketayozgan edi. Ana shunday bir paytda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingani ayni muddao bo‘ldi.

L. Morgan, E. Teylor, R. Soleski singari ibtidoiy madaniyat tadqiqotchilari xalq tabobatining shakllanishi Yer yuzida insoniyatning paydo bo‘lishiga borib taqalishiga urg‘u beradi. Chindan ham, davolashning bu usuli o‘ta qadimiy.

Uning sirlari avloddan-avlodga o‘tib, xalqning necha ming yillik tajribalari natijasida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan. Buni zardushtiylik ta’limotining muqaddas kitobi “Avesto” ham tasdiqlaydi. Uning barcha qismida, xususan, “Vendidod”da tabiblar tayyorlash, tabobat amaliyoti, kasalliklar tasnifi, ularning paydo bo‘lish sababi va omillari, noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tabib madaniyati, axloqi, uning kasbiga fidoyiligi kabi masalalar bayoniga alohida sahifalar ajratilganki, bu zaminimiz xalq tabobatida nihoyatda boy tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi.



Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino nafaqat qadim an'analarni davom ettirdi, balki davolashning yangi usullarini yaratib, tibbiyot ilmiga asos soldi. Ayniqsa, dunyo xalqlarining sevimli asariga, tibbiyot sohasi xodimlari faoliyatida dasturil-amalga aylangan "Tib qonunlari" atalmish nodir kitobda yozib qoldirilgan ma'lumotlar o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan, aksincha, qadr-qimmatini yana-da oshgan. Ulardan yana-da kengroq foydalanish hayotiy zaruratdir. Binobarin, xalq tabobati, uning o'ziga xos an'analari aholi salomatligini ta'minlash, tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish, xususan, surunkali kasalliklar profilaktikasi, ularni davolashda sifat, xavfsizlik va samaradorlik borasida amalda ko'p sinovlardan o'tgan. Yurtimizda xalq tabobati rivojiga yuksak darajada e'tibor qaratilayotganining boisi ham shunda. O'zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi, "Tabobat" akademiyasi tashkil etilib, jabhada olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, u taraqqiyotga yuz tuta boshladi.

Biroq qaysi soha bo'lmasin, vaqt o'tishi bilan mustahkam ilmiy asos va zamonaviy ilmga ehtiyoj sezganidek, xalq tabobatini ham sog'liqni saqlash tizimiga izchil integratsiyalash, o'zaro uyg'unlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlashni hayotning o'zi taqozo qilayotgan edi. Shu ma'noda, yuqorida nomi keltirilgan qarorda shu kabi masalalarni tizimli hal etishning aniq mexanizmi belgilab berilgani diqqatga sazovor.

Hujjatga ko'ra, Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etilmoqda. O'zbek xalq tabobatining tarixiy an'analari va o'ziga xos merosidan foydalangan holda, kasalliklarni profilaktika qilish, tashxis qo'yish va davolash, shuningdek, boshqa tibbiy xizmatlar ko'rsatishning samaradorligini tahlil qilish va o'rganish uning asosiy vazifasi etib belgilanmoqda. Buning uchun fitoterapiya, akupunktura, ayurveda, gomeopatiya, yoga, moksoterapiya, naturopatiya, osteopatiya, termal tibbiyot, xiro-amaliyot, sigun kabi xalq tabobatining asosiy yo'nalishlarini rivojlantirish, ularni amaliyotda keng qo'llash, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlar tayyorlash ishlarida bosh-qosh bo'ladi. Bundan tashqari, dorivor o'simliklar o'stirish, ular asosida xom ashyo tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni



tashkil etish, noyob shifobaxsh giyohlarni mahalliyashtirish bo'yicha tashabbuskor bo'ladi.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash bilan ham shug'ullanadi. Uning hududiy markazlarida xalq tabobati bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tibbiy ma'lumotga ega bo'lmaganlarga tegishli yo'nalishlarda faoliyat olib borish huquqini beruvchi guvohnoma beriladi. Hududiy markazlarda ilg'or ilmiy izlanishlar va tadqiqot ishlarini olib borish uchun barcha qulaylik, zarur moddiy-texnika bazaga ega zamonaviy laboratoriyalar tashkil etiladi.

Bularning barchasi kasalliklarni profilaktika qilish, tashxis qo'yish va davolashda g'oyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalq tabobatini rivojlantirishda katta imkoniyatlar eshigini ochadi, albatta. Ammo sohani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda xorijning ilg'or tajribasini o'rganish har tomonlama foydalidir. Shuning uchun bu jabhada yetakchilik qilayotgan Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Vyetnam, Fransiya, Rossiya davlatlari bilan hamkorlik, jumladan, joyiga borib keng o'rganish uchun barcha shart-sharoit yaratib berilmoqda. Bu borada dardlarni davolashda mo'jizalarga qodir bo'lgan Xitoy tabobatiga ko'proq murojaat qilinishi ko'zda tutilayotgani quvonarlidir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, Chin yurtida 1949-yildan 2009-yilgacha bo'lgan davr mobaynida aholining umr ko'rish darajasi 2 barobardan ko'pga uzayib, o'rtacha yashash davomiyligi 35 yoshdan 73 yoshga yetgan. Tabiiy savol tug'iladi: buning siri nimada? Insonparvar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qatorida, xalq tabobatining ommalashtirilishi samarasi hamdir.

Gap shundaki, o'tgan asrning 50-yillarida Xitoyda bemorni davolash borasida tabiblar tajribasi va yutuqlariga bo'lgan qiziqish tufayli xalq tabobati davolash usuli sifatida qayta tiklandi. 1972-yildan esa uning an'analari ilmiy asoslangan fan, ta'bir joiz bo'lsa, Xitoy ramzi, millat mulki sifatida jamiyat tomonidan tan olinadi.

Aytishlaricha, eramizdan avvalgi 259 — 210-yillarda Xitoyda yashab o'tgan imperator Sin Shixuan juda badjahl, qaysar va johil bo'lsa-da, tibbiyotga oid kitoblarni asrab-avaylagan ekan. Ana shu manba qadimiy tabobatni nafaqat qayta tiklash, balki



uning yutuqlarini zamonaviy tibbiyotga tatbiq etish va ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash sohasida erishilayotgan yutuqlar negizi ayni shunda, deb qaraladi. Buning amaliy isbotini dunyoning eng badavlat va mashhur kishilari dam olib, sog‘lig‘ini tiklaydigan Gavayi orollariga qiyoslanadigan Xaynan oroli misolida ham ko‘rish mumkin.

Bundan atigi 30 yil muqaddam — 1990-yillarda bu yerda qadimgi baliqchilar qishlog‘idan boshqa hech vaqo bo‘lmagan. Xitoyliklar bir avlod ko‘z o‘ngida aholisi qashshoq, yerlari botqoq bo‘lgan orolni ham dam oladigan, ham davolanadigan dunyoning eng mashhur kurort maskanlaridan biriga aylantirishga muvaffaq bo‘lishdi. Dengiz bo‘yida zamonaviy bandargohlar, ko‘p qavatli binolar, shifoxonalar, kurort va sanatoriylar barpo etilgan bu manzil yil davomida sayyohlar bilan gavjum. Inson salomatligini tiklash va davolashning qadimiy usuli ana shunday imkoniyatlarni tortiq qildi. Ayni paytda bu yerda sog‘lomlashtirish dasturlariga qo‘shimcha ravishda inson organizmini yoshartirish ustida olib borilgan ilmiy-amaliy ishlar natijalariga asoslangan yangi yo‘nalishlar kiritilgani qiziqishni yana-da oshirayotgani bor gap.

O‘zbekistonda xalq tabobatini ana shunday yuqori darajaga olib chiqish uchun imkoniyat ham, salohiyat ham yetarli. Jonajon Vatanimiz betakror tabiati, o‘ziga xos o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega, Allohning nazari tushgan noyob manzil hisoblanadi. Eng muhimi, tib ilmining ustuni bo‘lmish Abu Ali ibn Sino bobomiz qoldirgan benazir merosga egamiz. Ularni amaliyotda keng qo‘llash ko‘zda tutilgan 2021 — 2025-yillarda O‘zbekistonda xalq tabobatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda uning maqsadli ko‘rsatkichlarni amalga oshirishga doir “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilmoqda. Mazkur konsepsiya tasdiqlanib, amalga joriy etilishi sohadagi ko‘plab muammolarni hal qiladi. Masalan, xalq tabobatining o‘zagi bo‘lgan asosiy yo‘nalishlarni rivojlantirish va zamonaviy tibbiyotda ularni qo‘llash bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanmalar, adabiyotlar juda-juda kam. Qadimda keng foydalanilgan va yuqori samarali davolash usullari bo‘yicha adabiyotlar yaratilishi, targ‘ibot ishlarining kuchaytirilishi, o‘z navbatida, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini joriy etishda qo‘l keladi. Eng katta boyligimiz bo‘lgan sog‘lig‘imizni mustahkamlashga xizmat qiladi.



Ilm-fan taraqqiy etgan hozirgi davrimizda tibbiyot rivoji ham tezlashib ketdi. Ammo kimyoviy preparatlar kasalliklarni davolashning yagona vositasi emas. Bu usulda tayyorlangan dori-darmonlardan ko'ra, shifobaxsh tabiiy giyoh va damlamalar asosida davolashning foydasi yuqori ekanligi butun dunyoda tan olinmoqda. Aniqrog'i, xalq tabobati xavfsizlik va samaradorlik jihatidan amalda o'zini oqlamoqda. Shu bois unga murojaat qiluvchilar tobora ortib boryapti. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan Xalq tabobati sohasidagi 2014 — 2023-yillarga mo'ljallangan strategiya amalga oshirilayotgani ana shu hayotiy ehtiyoj mevasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Qarorning o'ziga xos yana bir jihati shundaki, unda oliy ta'lim muassasalari oldiga hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuqori salohiyatli, raqobatdosh va malakali kadrlar tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda. Shundan kelib chiqib, ko'p asrlik tarixga ega Samarqand davlat universitetida talabalar, izlanuvchilar, aspirantlarga ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish, amaliy tajribalar o'tkazish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratib berilyapti. Xususan, SamDU biologiya fakulteti qoshida Hindistonning Dehli universiteti bilan hamkorlikda "Abu Ali Ibn Sino merosi" ilmiy laboratoriyasi tashkil qilingani nabotot namunalarining dorivorlik xususiyatlarini o'rganish barobarida, mutaxassis va olimlar bilan hamkorlikda ularni amaliyotga joriy qilish bo'yicha innovatsion ishlanmalar yaratishda qo'l kelyapti.

Shu bilan birga, mazkur sohadagi ta'lim, ilmiy jarayonlarga innovatsion ruh berish maqsadida universitetimiz bilan Amerika Qo'shma Shtatlarining "Vet Vittalts" kompaniyasi o'rtasida shartnoma imzolangan. Unga binoan boshqa sohalar qatorida, dorivor o'simliklarning jonivorlar organizmiga ta'sirini birgalikda o'rganish, ilmiy ishlar olib borish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytish joyizki, bugun yurtimiz O'zbekistonda xalq tabobatini zamonaviy sog'liqni saqlash tizimiga izchil integratsiyalash borasida olib borilayotgan bunday keng ko'lamli islohotlar qadim davolash sirlaridan voqif bo'lish, bizga ma'lum bo'lmagan dorivor o'simliklarni aniqlash, ulardan aholi salomatligi yo'lida samarali foydalanishdek ezgu maqsadga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Binobarin, inson va tabiat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zaro vobastalikni



ta'minlagan holda, inson salomatligini mustahkamlash xalq tabobatini taraqqiy ettirishdan ko'zlangan pirovard maqsaddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Каримов У. И., Неизвестное сочинение ар -Рази «Книга тайны тайн», Т., 1957.
- 2.Кадыров А. А., Саипов У. Т., Абу Бакр Рази, Т., 1963. 3.Усманов М. А., Закарийя арРази, в книге «Из философского наследия народов Востока», Т., 1972.
- 4.Abu Bakr Roziy va uning shogirdi yozib qoldirgan kasalliklar tarixi, Т., 1974.
5. Karimov S. U., IX—XI asrlarda kimyo va dorishunoslik fanlari taraqqiyotida Markaziy Osiyo olimlarining o'rni, Т., 2002.
6. Peter Adamson. Al-Razi Great Medieval Thinkers, Oxford University Press, 2021.- 256 pages.
7. Bakayev N.B. Lotin tili Lingua Latina. Buxoro -2023.
8. Kuvandikova, K. (2025). THE ROLE OF COMMUNICATION IN LANGUAGE LEARNING:TIPS FOR SPEAKING FLUENCY. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION (Т. 4, Выпуск 3, сс. 10–13). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15004062>
9. Kuvandikova, K. (2025). THE ROLE OF COMMUNICATION IN LANGUAGE LEARNING:TIPS FOR SPEAKING FLUENCY. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION (Т. 4, Выпуск 3, сс. 10–13). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15005275>
10. Kuvandikova, K. (2025). THE ROLE OF COMMUNICATION IN LANGUAGE LEARNING:TIPS FOR SPEAKING FLUENCY. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION (Т. 4, Выпуск 3, сс. 10–13). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14999363>
11. kuvandikova, K. (2024). COLLABORATIVE MOBILE LEARNING APPROACH. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION (Т. 3, Выпуск 11, сс. 131–134). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14207956>



12. Kuvandikova, X. (2024). PROBLEMS, SOLUTION AND DEVELOPMENT OF ESP IN UZBEKISTAN. B INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 4, Выпуск 1, сс. 210–214). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10568469>
13. Kuvandikova Kh.B. Problems, Solution and Development of ESP in Uzbekistan <https://doi.org/10.5281/zenodo10568469>
14. Кувандикова Х.Б. Пути развития творческой деятельности учащихся <https://cspu.uz/>
15. Kuvandikova Kh.B. Essential Tips and the Ways of Overcoming Difficulties in Writing <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1188>
16. Kuvandikova Kh . Implementation of CLIL in language learning and teaching process <http://grnjournals.us/index.php/AJSHR>